

---

## Yosh tadbirkor hunari bilan ko'plab insonlarga yordam bermoqda

Ha, bunday insonlar oramizda kam uchraydi. Ismoiljon Ne'matov 29 yoshda. "Nafosat" mahallasidagi bo'sh turgan binoni ijara asosida ustaxona uchun olgan. U yerda o'zi va shogirdlari velosipedlarni ta'mirlashadi.

Asosan hovli uylarda yashovchi aholi xonadonlarining deyarli har birida velosiped bor. Ismoiljon mahalladagi ehtiyojmand xonadonlarning velosipedlarini tekinga ta'mirlaydi. Zaruriy ehtiyot qismlarini olib kelinsa bas, darrov o'rnatib beriladi. Xizmat haqqi esa olinmaydi. Shu kunlarda kichik ustaxonada elektr quvvati bilan harakatlanuvchi velosiped va mopetlarni ta'mirlash ham yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, mahalladagi ayni kunlarda ta'tilda bo'lgan besh nafar o'quvchilar ustadan bu hunarning sir-asrorlarini o'rganishmoqda. Har oyda o'rtacha ikki yarim million so'm atrofida daromad topayotgan Ismoiljon shu hunarni egallaganidan juda mamnun.

Yosh tadbirkor faoliyatini yanada kengaytirish bo'yicha yangi loyihalar tayyorlamoqda.

2023-06-22 15:18:47